

INGLIZ TILINI O'QITISHDA KREATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI HAQIDA

Seilxanova Rita Nurniyazovna

Qoraqalpog' davlat universiteti o'qituvchisi

rita.8211@icloud.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida nofilologik talabalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlarini ishlab chiqish masalalari muhokama qilingan. Ushbu bosqichlarlar orqali ta'lim jarayonida ingliz tilini o'qitishda kreativ kompetensiyani rivojlantirishning natijalari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ingliz tilini o'qitish, kreativ kompetensiya, model, metodika, bosqichlar, tayyorgarlik, universallik.*

Аннотация. *В данной статье обсуждаются вопросы разработки этапов развития креативной компетенции у студентов-нефилологов в процессе обучения английскому языку. Через эти этапы обсуждаются результаты развития креативной компетенции в преподавании английского языка в образовательном процессе.*

Ключевые слова: *обучение английскому языку, креативная компетенция, модель, методика, этапы, подготовка, универсальность.*

Abstract. *This article discusses the development of stages for developing creative competence in non-philology students in the process of teaching English. Through these stages, the results of developing creative competence in teaching English in the educational process are discussed.*

Keywords: *English language learning, creative competence, model, methodology, stages, preparation, versatility.*

Belgilangan tamoyillardan kelib chiqib, olimlarning (I.A.Zimnyaya, L.V.Shkerin, A.V.Xutorskaya, V.A.Yasvin va boshqalar) ishlari tahlili asosida

kreativ kompetensiyani rivojlantirish modelida to'rt bosqichga: tayyorlovchi, kiruvchi, rivojlantiruvchi, tahliliy bosqichlar keltirilgan.

I. Tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda oliy ta'lim bakalavriati kreativ kompetensiyasining mazmuni va tuzilmasi hamda uning mutaxassis kasbiy kompetensiyasidagi o'rni, shuningdek, ingliz tilini o'qitish jarayonida ushbu kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Kreativ kompetensiyaning rivojlanish tuzilmasi va mezonlariga mos kreativ yo'naltirilgan topshiriqlar majmuasi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, ushbu bosqichda kreativ kompetensiyaning rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun diagnostika vositalari ishlab chiqiladi. Monitoring vositalari quyidagi talablarga javob berishi kerakligini ta'kidlaymiz [1]:

yaxlitlik (alohida bilim va ko'nikmalarni emas, balki kompetensiyani o'lchash); *ishonchlilik* (o'lchash aniqligi, shunday sharoitlarda o'lchashni takrorlashda natijalarning barqarorligi);

obyektivlik (kompetensiyani o'lchash natijalarining uni kim o'lchashiga bog'liq emasligi);

texnologik (baholash vositalaridan foydalanish, foydalanish qulayligi);

oshkoralik (baholash mezonlari ta'lim oluvchilarga oldindan ma'lum qilinadi).

Tayyorgarlik bosqichida ishlab chiqilgan diagnostika vositalari yordamida ikkinchi bosqich amalga oshiriladi.

II. Kirish bosqichi. Uning maqsadi talabalarda kreativ kompetensiyaning rivojlanganlik darajasini belgilashdan iborat: past, o'rta, yuqori.

III. Rivojlantiruvchi bosqich ingliz tili fanlarini o'qitish jarayonida nofilologik talabalarining kreativ kompetensiyasining rivojlanganlik darajasini oshirishga qaratilgan. Bu bosqich talabalarni o'qitish kurslariga mos uchta kichik bosqichdan iborat: (1-, 2-, 3-kurs).

Ajratilgan bosqich va kichik bosqichlarning har biri o'zaro bog'liq va o'zaro aloqador komponentlar bilan tavsiflanadi: maqsad (ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ kompetensiyani rivojlantirish), o'qitish usullari va shakllari, o'qitish mazmuni, o'qitish vositalari.

Bunday turlarga tayyorlangan ma'ruza, izlanish seminari, seminar-loyihalar taqdimoti, davra suhbat, ishbilarmonlik o'yini va boshqa interfaol o'qitish, shuningdek, guruhlararo o'zaro ta'sir, shaxslararo va kasbiy (mutaxassislik) muloqot turlarini kiritish mumkin. Bunda darslarni tashkil etish talabaga tushunarli va yaqin bo'lgan, ya'ni talabalarning shaxsiy hayotiy tajribasidan foydalanishni nazarda tutadi. Ikkinchi bobda ingliz tilini o'qitishning har bir bosqichida kreativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasiga to'xtalamiz.

IV. Tahlil bosqichi yuqorida aytib o'tilgan o'qitish usullari, turlari, mazmuni va vositalaridan foydalanish samaradorligini ta'lim jarayonining barcha subyektlari: o'qituvchilar (shu jumladan ixtisoslik fanlari), ish beruvchilar (dars o'qituvchilari va o'quv yurtlarining vakillari), talaba (kreativ kompetensiyaning rivojlanish darajasini o'z-o'zini baholash).

Tashxis quyidagi usullar yordamida amalga oshirildi: kreativlikni shaxsning shaxsiy xususiyati yoki uning faoliyati mahsuli sifatida baholash imkonini beruvchi metodikalar (Gilford, Torrance [2] va Mednik [3] testlari); kreativlik kompetensiyasining rivojlanish mezonlari bilan bog'liq bo'lgan va uning rivojlanish darajasini (past, o'rta, yuqori) aniqlash imkonini beruvchi kreativlikka yo'naltirilgan topshiriqlar [4]. Talabalarning KK rivojlanishida Gilford metodikasi [5] darajani oshirishga yordam beradigan leksik topshiriqlarning xarakterlaydi. Bunda talabalarning quyidagi ingliz tilidagi leksik leksik birliklarni o'zlashtirish motivlariga quyidagi holatlarga e'tibor qaratish lozim:

- 1) topshiriqlar tanlanishi kerak;
- 2) topshiriqlar talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tuzilgan bo'lib, o'qishga yuqori motivatsiya hosil qilish;
- 3) topshiriqlarni mazmunli grafik bilan berish tavsiya etiladi;
- 4) mavzuga mos rasmlar, audio, video materiallar, dasturlar;
- 5) topshiriqlarning murakkablik darajasi talabalarning bilim va ko'nikmalari darajasiga mos bo'lishi kerak;
- 6) topshiriqlar talabaning bajarish vaqtining tejamliligi va sharoitiga mos bo'lishi kerak. Masalan: 1-kurs "Ingliz tili" fanida talabalarning KK rivojlanishiga

qaratilgan "Beginning (end) of a story "Waterfall," "Profile of a famous person," "Suggestions about protecting the environment," "Pros and cons of the Internet for children" mavzulari bo'yicha KK rivojlanishiga qaratilgan mashqlar olib borilsa bo'ladi.

Bu topshiriqlarni talabalarga ko'proq mustaqil ishlarni bajarish jarayoniga olib borgan ma'qulroq. Bu ularda "Workbook" hamda qo'shimcha adabiyotlar va internet materiallari asosida bajariladi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida ta'lim oluvchilarning kompetensiyalari rivojlanganlik darajasini baholash usulining muhimligiga qaramasdan, hozirgi vaqtda uning mazmun-mohiyati bo'yicha yagona tushuncha mavjud emasligi ko'rsatib o'tildi. Tadqiqotchilar baholash obyektining muayyan me'yorga muvofiqligiga (V.A.Buxvalova, Ya.G.Pliner), "bu sohada ishlayotgan yetakchi mutaxassislarning evristik imkoniyatlariga, bilim, tajriba va intuitsiya asosida o'rganilayotgan hodisalarni baholash imkonini berishiga" e'tibor qaratadilar [6]. Shunday ekan, bizningcha talabalarda KKni rivojlantirishda quyidagi vazifalarga e'tibor qaratish kerak:

Rejalashtirishga tayyorlik - bu fikrlarni tartibga solib, keyin ularni izchil bayon qila olish;

Moslashuvchanlik - talabalar boshqa talabalarning g'oyalarini ijobiy qabul qilish qobiliyati. Bu qobiliyat unga turli ma'lumotlar asosida o'z g'oya va fikrlarini shakllantira olishi uchun zarur.

Qattiqqo'llik - talabalar murakkab muammoni yuqori darajadagi aqliy qobiliyatini ishga solib, sabr-toqat bilan hal qila olishi. Qattiqqo'llik talabalarga dars jarayonida katta natijalarga erishishga yordam beradi.

O'z xatolarini tuzatishga tayyorlik - talabalarning o'z xatolarini tan olish va ular asosida ta'lim olish uchun zarur bo'lgan to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyati.

Anglash - o'zining fikrlash faoliyatini kuzatish, fikrlashning borishini kuzatib borish qobiliyati.

D.A.Ivanov ekspert baholashni "ekspert baholashning obyekti va predmeti haqida maxsus bilimlarni, shuningdek, professional ko'nikmalarni (loyihalash,

tahlil, nazorat, boshqarish va h.k.) talab qiladigan, natijasi asoslangan xulosa berish bo'lgan ekspert-tahliliy faoliyatning alohida usuli" deb ta'riflaydi [7]. Nofilologik talabalarning kreativlik kompetensiyasini baholash holatida ekspert baholashning maqsadi uning rivojlanish mezonlarining paydo bo'lishini sonli baholash va natijalarga rasmiy ishlov berish orqali intuitiv-mantiqiy tahlil qilishdan iborat.

Ingliz tilini o'qitishda talabalarda kreativlik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida keltirilgan tamoyillar amalga oshirilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ефремова Н.Ф. Подходы к оцениванию компетенций в высшем образовании: учебное пособие. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2010. – С. 106.
2. https://www.testingmom.com/tests/torrance-test/?srsId=AfmBOop-e-dPbMfAAuIeQ0h7oIDLCBV0-qtO24_W5bPaqLmwDz9RKHox
3. [Статьи | Тест на креативное мышление Медника \(RAT\)](#)
4. Бекешева (Егорова) И.С. Специальный комплекс креативно-ориентированных математических заданий, направленных на формирование креативной компетентности будущих бакалавров-учителей: учебное пособие. – Абакан: Издательство Хакасского государственного университета им. Н.Ф.Катанова, 2017. – 48 с.
5. [Пройти тест: Тест социального интеллекта Гилфорда](#)
6. Лобок А. Профессиональная педагогическая экспертиза: как преодолеть миражи // Воспитание. Образование. Педагогика: биб-ка «Первого сентября». – 2008. – № 13. – С. 43.
7. Иванов Д.А. Экспертиза в образовании: учебное пособие для вузов. – М.: Академия, 2008. – С. 240.